


– Men «Tong yulduzi»ni o'qib, jurnalist kasbiga mehrim
ortdi. Sen menga hamon qadrdonsan, sevimli gazetam!

Mohichehra ESHMIRZAYEVA, Surxondaryo



2008-yil
6-oktabr
N:40
(66685)



O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



DUSHANBADAN

PREZIDENT TABRIGI

«Bugungi kunda qariyb 1 million ta'lim sohasi xodimlari o'zining ko'z nuri va qalb qo'ri, bilim va iste'dodini bag'ishlab, 7 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimizga ta'lim va tarbiya berayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu sohada bizning qanday katta kuch va salohiyatga ega ekanimiz ayon bo'ladi», deyiladi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrigida.

1-Oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni umumxalq bayrami joylarda katta tantana bilan o'tkazildi.

MUKOFOTLAR MUBORAK!

«O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnatilgan ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga asosan, yurtimizning bir qancha ustoz va murabbiylari davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi.

Mukofotlar muborak bo'lsin!

USTOZLARGA EHTIROM

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan viloyatlardan kelgan ikki yuzga yaqin eng faol ta'lim fidoiylari poytaxtimizning diqqatga sazovor joylarini borib ko'rdilar. Shuningdek, ular Sobir Rahimov tumanidagi 243-umumta'lim maktabida bo'lishib, o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Shuni aytib o'tish joizki, maktab o'tgan o'quv mavsumida «Mehr nuri» jamg'armasi tomonidan qayta rekonstruksiya qilindi va zamonaviy texnologiyalar, o'quv anjomlari bilan to'la jihozlandi. Hozirda 2486 nafar o'quvchilarga 120 dan ziyod pedagoglar ta'lim berayotgan ushbu ko'rkam va zamonaviy maktabda o'quvchilar uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

– Hozirda maktabimizda «Oila-Mahalla-Maktab» dasturi bo'yicha aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan, – deydi maktab direktori Nasiba opa Nishonova. – Buni tuman IIBda ro'yxatda turuvchi bolalar orasida maktabimiz o'quvchilaridan birorta ham yo'qligi bunga bir misoldir. 2008-yilda maktabimiz «Eng yaxshi ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilgan maktab» sifatida respublikamizda tan olindi.

Tadbir yakunida ustoz va murabbiylar bayram munosabati bilan «Turkiston» saroyida o'tkazilgan tantanali yig'ilish va bayram konsertida ishtirok etdi.

Sherali NAMOZOV

TUMAN BO'YLAB BAYRAM

Mirzo Ulug'bek tumanidagi barcha bilim maskanlarida «Ma'rifat nurini taratuvchi ustoz» mavzusida bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. Jumladan, Toshkent sanoat kasb-hunar kollejida o'tkazilgan shodiyonaga Umida Babayeva, Shoira Abdujabborova kabi faxriy murabbiylar ham taklif qilindilar. Tuman «Kamalak» bolalar tashkilotining raisi Rustam Masaliyev homiylik qilgan mazkur tadbir o'quvchilar ijodiyoti markazi jamoasining chiqishlari bilan yana-da ko'tarinki ruh oldi.

Shirmonoy ASRANOVA



Gazetxon o'quvchilar, eshitmadim
demanglar!

Sevimli nashringiz «Tong yulduzi» gazetasiga
2009-yil uchun

OBUNA

boshlandi.

Nashr ko'rsatgichi: 198

DUSHANBAGACHA



FOTOSURATLAR TANLOVIGA



Men ham askar bo'laman!

Nurislom olgan surat

XAZON BARGLARINI YOQMANG!

Barglarning ayrim kishilar yoxud o'yinqaroq bolalar tomonidan ko'p qavatli uylar va aholi gavjum joylarda uyum-uyum qilib yoqib yuborilishi ko'plab noxush oqibatlariga olib kelyapti.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish nafaqat hayotimiz, balki mol-mulkimizni asrashga xizmat qilishini anglab yetishimiz zarur.

«Vatan ostonadan boshlanadi», deyilganidek, o'z uyimiz, mahallamizni ozoda saqlab, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilsak, joylarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Yahyo KOMILOV,
Sirg'ali tumani IIB YOXB
inspektori, kapitan

BEZORI

Bu gapni eshitish yomon. Chunki bezorilik jinoyatga boshlaydi. Lekin bizning maktabimizda doim bu kabi illatlarga qarshi kurashish uchun o'quvchilar orasida tushuntirish ishlari olib boriladi. O'qituvchimizning aytishlaricha, davlatimiz tomonidan biz yoshlarning o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida 2000-yil 21-sentabrda «Voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi» qaror qabul qilingan ekan. Huquq fanini ham yaxshi o'qisak, foydadan holi bo'lmaydi.

Robiya TURSUNOVA,
Namangan tumanidagi 15-
maktabning
9-sinf o'quvchisi

USTOZ BO'LAMAN



Bir maktabdan
qo'sh maktub

Mening aziz buvijonim 35 yil ustoz muallima bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlarida barchaga o'rnak bo'lganlar. Hozirgi kunda onam ham maktabda ustoz, ko'p o'quvchilarga saboq berib kelmoqdalar. Men esa 5-son musiqa maktabida fortepyano bo'limining 3-sinfida tahsil olaman. Kelajakda men ham uztoz bo'laman.

Robiya VAHOBOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
227-maktabning 4-«A» sinf
o'quvchisi

TA'ZIM!

Onam 35 yillik faoliyatidan so'ng, mahallada faol maslahatchi, tadbirlar g'olibi bo'lib ishlab kelmoqdalar.

Otam esa maktabda rahbar. Mahalla-kuyda o'ziga yarasha obro'-e'tiborga ega insonlardan.

«O'qigan xor bo'lmas», degan haqiqat ekan. Men ham o'qitishdan, mana 10 yildan ziyod azim Toshkent shahrining eng ko'zga ko'ringan maktablarining birida o'qituvchi sifatida ishlab kelmoqdaman.

Mehnat faoliyatimda ota-onamdan olgan tarbiyam, bilimim asqotmoqda. Shu munosabat bilan ustozimga, ota-onamga gazetangiz orqali minnatdorchiligimni bildiraman.

Hilola KOMILOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
227-maktab o'qituvchisi



«BOLANGIZNI BILASIZMI?»

Kuni kecha poytaxtimizdagi 227-maktabning 8-«A» sinfida ota-onalar majlisi o'zgacha, ya'ni «Bolangizni bilasizmi?» trening-mashg'uloti tariqasida o'tkazildi. Mashg'ulot davomida ota-onalar farzandlari haqida bilmoqchi bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ldilar. O'zlari ham qator takliflar kiritib, kelgusida ota-onalar majlisi yana trening-mashg'uloti tariqasida o'tkazishni, tez-tez uyushtirish istagi va ularga ma'qul bo'lganligini yashirmadilar.

Bu kabi mashg'ulotlar nafaqat o'qituvchilarni ijodiy izlanishga, balki ota-onalarni ham majlislardan bezdirmay, yana jalb etishga xizmat qiladi.

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA

22 MING MAKTAB

Ayni kunlarda Saudiya Arabistonida 8 ta universitet, 94 ta kollej va 22 ming 300 dan ziyod maktab faoliyat yuritadi. Ularda 4,15 millionga yaqin bolalar tahsil olishadi. 1974-yil 66,9 foiz aholining yuqori qatlami o'qish, yozishni bilishmasdi.

Muammoni bartaraf etish uchun mamlakatda kechki institutlar, maxsus maktablar ochildi. 1992-yilda savodxonlik 28,44 foizga, 1995-yilda bu ko'rsatgich 25,1 foizga kamaydi. Hozirgi kunda mamlakatda savodxonlikni oshirish uchun barcha chora tadbirlar izchil olib borilmoqda.

Aborni bilganlar uni tuppa-tuzuk yigit, deb o'ylashardi. Qaddi-basti kelishgan, doimo kulib yuradigan Abror negadir keyingi paytlarda xomush bo'lib qolgan, o'zi bilan o'zi ovora. Rangi-quti ham bir ahvolda. Xavotirga tushgan ota-onasi uni zudlik bilan shifoxonaga olib borishdi. Shifokordan tibbiy tekshiruv natijalarini eshitishdi-yu, ota-onaning ham ahvoli yomonlashdi. Ya'ni... Abrorning qonidan VICH infeksiyasi chiqqanmish. Bu esa og'ir dardlardan biri OITS edi.

Shunga o'xshash holatlarni oldini olish maqsadida, yaqinda poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi «Huvaydo» mahallasida muhim sahnalashtirilgan tadbir bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir «OITSGa qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar» doirasiga kiradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda OITS (SPID) kasalligiga duchor bo'lganlar soni dunyo miqyosida 40 milliondan oshib

OGOHI BO'LING, BOLALAR!

ketdi. Asr vabosiga aylangan bu xastalik oilalar, jamoalar, mamlakatlar uchun katta muammoga aylanib bormoqda. Bu nafaqat tibbiyot muammosi, balki ijtimoiy davlatlararo, diniy va axloqiy, global muammo ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Bu borada «O'zbekistonda 2007-2011-yillarda OITS infeksiyasi tarqalishining oldini olishga qaratilgan strategik Dastur»ning qabul qilingani ham ayni muddao bo'ldi.

– «Huvaydo» mahallasida 3 mingdan ziyod aholi, mingdan ortiq yoshlar yashaydi, – deydi mahalla oqsoqoli, geologiya-minerologiya fanlari doktori Fotix Asqarov. – Ziyolilar ko'pligidan mahalla ahlining tinch, ahil yashayotganini ularning turmush tarzidan shundoqqina his etish mumkin.

OITS profilaktikasi mavzuida o'tkazilgan tadbirda Respublika «Salomatlik» instituti bo'lim boshlig'i Aziz Tursunboyev, tibbiyot fanlari doktori Manzura Hamidova, 45-oilaviy poliklinika bosh shifokori Nargiza Shermuhammedovalar o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Respublika Sog'liqni saqlash Vazirligi va «Mahalla» jamg'armasi, «Salomatlik-2» loyihasi bo'yicha o'quv kursini bitirgan Nazifa Akromova («Bog'-ko'cha» mahallasi) va Farida Otamovalar («Bo'ston» mahallasi) tadbirning jonli o'tishiga hissa qo'shdilar.

Tadbir tashkilotchilari kutganidek, barchaning, ayniqsa, yoshlarning katta qiziqishi ostida o'tdi.

Vasila PO'LATOVA

322-maktab o'quvchisi
Noila UNGAROVA,

Albatta ertaga meva berajak!
Etilik yil – iqbolim, mehnatim, sabrim,
Poyimda poyondoz sizning kelajak,
Maktabim qo'yimda gullagan umrim,
Turtbsiz yonimda bugun ulug'vor!
O'quvchim, o'sdingiz, qaddingiz baland,
Ko'ksimda loladek ko'z ochib dushvor,
Hovuchlab sochdi yillar zartarini,

ISHONCH



Gulruh AKROMOVA
Ustozim muallimim!
Bizga bilim o'rgatgan,
Rahmat senga, maktabim,
Zavqqa to'lib o'ynaymiz,
Dilimni quvatganda,
Yangi chiqqan lolalar,
Sochlarim o'ynatganda,
Unda esgan shaboda,
Bahra olgim keladi,
Fasning chiroyidan,
Bogqa chiqqim keladi,
Gullar ochilgan chog'i,

HAMAL

Kapalagim bor bita,
Oq, sarq ganollari,
Qo'shimizning gulliga,
Chirmashdi oyoqlari,
Kapalakjon, kapalak,
Gulzorda kezding halak,
Uchishingni ko'rayin,
Qunonib zavqlanayin.

KAPALAK



Salor va Qorasuvning tarmog'i bo'lmish bu ariq Shoshitepa aholisini suv bilan ta'minlab turgan. Bu atama xalq tilida Junarig bo'lib ketgan, degan fikrlar bor.

JUNARIQ

I-XVI asrlardan g'olgan tarixiy arxeologik yodgorlik, eski Nog'ayqo'rg'on shaharchasidan g'olgan qismi, Salor suv tarmog'ining o'ng tarafida joylashgan.

QO'G'AYTEPA

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Qorasuv, Salor va Jun arig'i yoqalarida, dastlabki ilk qishloqlar gad ko'targan. Bir tomoni Jun arig'iga yondoshgan bu qadimgi joy atrofi dastavval tuproq marza bilan o'rallib, qadimgi ibora bilan aytganda «kat», ya'ni qishloq qiyofasini olgan.

SHOSHTEPA (2)




Choshitepa, arxeologik yodgorlik. Baland ark gal'adan iborat shahar xarobasi (mil. av. 16-

SHOSHTEPA (1)

2200 yillik tarixga ega poytaxtimiz. I tumandan iborat bo'lib, uning janubiy-g'arbiy qismini Sirg'ali tumani tashkil etadi. Sirg'ali tumani 1967-yilda tashkil topgan, tumanda quyidagi tarixiy obidalar mavjud:

OBIDALAR TILGA KIRDI

TOSHKENTNING 2200 YILLIGIGA



SHOSHNING OLTIN SIRG'ASI

«Tong yulduzi» – 2008

Nashrga tayyorlaganlar:

Dilorom RAHIMJONOVA,
To'liqin HAYIT,
Feruza JALILOVA,
Yusuf FAYZULLO,
Nargiza ABDULLAYEVA,
Manzura UBAYDULLAYEVA,
Zuhra MUXXIMOVA

Ushbu kitobchani tayyorlashda yaqindan ko'mak berganlari uchun Sirg'ali tuman hokimiyatiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

«Tong yulduzi»
Toshkent – 2008

M. QURBANOVA,
301-makab

Erasi kuni Dilnoza sinfdoshlari oldida Umidani hasadga'ylik qilib, o'zi bilan Gulnoza o'rasidagi do'stlikka nitq solgani aytdi. Barcha sinfdoshlar bundan gatiq afsuslanishdi. Bo'lib o'tgan voqealarni eslarikan. Dilnozaning vijdoni qiyaldi. Shunday bo'lsa-da, tug'ilgan kuni bahona yana bir bor Gulnozadan kechirim so'rab, do'stlikni tiklash magasidida uyiga bordi. Gulnozadan kechirishini, do'st bo'lib qolishini iltimos qildi. U esa allaqachon kechirganini aytib, boshqa hech qachon arazlashmaslikka so'z berdi. Shunday qilib, Gulnozaning tug'ilgan kuni haqiqiy bayramga aylanadi.


Dilnozadan: «Nima uchun meni kumay maktabga kechib golding», deb so'radi. Dilnoza sinfga Gulnoza kiritib keldi va deb Dilnozani ayattirdi. Shu payt ekan, bu haqda o'zing ayimabsan», ayitishicha, seni nogiron ukang bor oldida uni masxaralab: «Gulnozaning borligini bilib qolai va sinfdoshlari uyiga boragan, rning nogiron ukasi takrorlandi. Umida Dilnozalarining aldadi. Bungay hoielar bir neche bor qilishga vaqti yo'q ekan, deb Gulnozani esa Dilnozaning dars dars qildik», dedi. Bu gap uyiga olib keldi, birga Dilnozaga og'ir bordi.



Dilnozadan: «Nima uchun meni kumay maktabga kechib golding», deb so'radi. Dilnoza sinfga Gulnoza kiritib keldi va deb Dilnozani ayattirdi. Shu payt ekan, bu haqda o'zing ayimabsan», ayitishicha, seni nogiron ukang bor oldida uni masxaralab: «Gulnozaning borligini bilib qolai va sinfdoshlari uyiga boragan, rning nogiron ukasi takrorlandi. Umida Dilnozalarining aldadi. Bungay hoielar bir neche bor qilishga vaqti yo'q ekan, deb Gulnozani esa Dilnozaning dars dars qildik», dedi. Bu gap uyiga olib keldi, birga Dilnozaga og'ir bordi.



o'qib yurgan chog'larida tasviriy san'atga qiziqib qoldi. Alijon aka va Shahlo opalar o'g'illari'dagi bu qiziqishga unchalik e'tibor berishmadi. Bora-bora bolaning chizgan rasmlari, tasavvurining boyligi undagi fantaziya'ga moyillik ko'pchilikning diqqatini tortib boshladi. Uning qalamiga mansub tarixiy



U nafaqat Chorsu, balki butun Toshkentga dong'i ketgan tunukachi ustazodalarning to'rtinchi avlodiga mansub. Tunukadan kishi ko'zini quvonitirib hayratga soluvchi anjomlar yasash bu sulolaning sevimli mashg'uloti. Yoshligidan tiritshiqoq Ulug'bekning ham zo'r usta bo'lib yetishishiga hammaning ishonchi komil edi. U esa 4-5 sinflarda

TUNUKADAN OLTIN YASAGAN O'SMIR
yoki Ulug'bek Normirzayev haqida




2009-yilning may oyida azim poytaxtimiz Toshkent katta tantana bilan o'zining 2200 yillik to'yini nishonlaydi. Bu to'ygaga dunyoning turli burchaklaridan minglab mehmonlar tashrif buyuradilar. Shu munosabat bilan «Tong yulduzi» gazetasi ham o'quvchilar uchun poytaxt haqida kengroq ma'lumot berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Xabaringiz bor, har oyda gazetamiz ichida yaxlit asarlarni kitobcha shaklida chop etish tajribasi qo'llab kelinadi. Mazkur sonda boshlab poytaxtimizning har bir tumani haqida maxsus sahifa berib boramiz. Unda tumandagi tarixiy obidalar, tuman tarixi, iqtidorli o'quvchi va yoshlar ijodidan namunalar beriladi. Mazkur sonlarni yig'ib kitobcha shakliga keltirib borsangiz, shahrimiz yubileyiga qadar o'n bir dona kitobcha va eng qimmatlisi ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lasiz.


Ilk kitobcha poytaxtimizdagi o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan Sirg'ali tumani haqida bo'ladi. Mazkur son «Yoshlar yili»da o'quvchilar uchun munosib sovg'a bo'ladi, deb umid qilamiz.

Rasmlar tartibini tiklang






siymolarning portrelari, tabiat manzaralari, natyurmortlar kishini befarq qoldirmay, zavq bag'ishlay boshladi. Hozirda Respublika dizayn kolleji tahsilni davom ettirayotgan Ulug'bekning ijodida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bilim maskanidagi ustozlarning mashahatlari bois, uning chizgan asarlari sayqallashib bormoqda. Ulug'bekning orzulari ulkan: kollejdin so'ng tahsilni Behzod nomidagi san'at institutida davom ettirmoqchi. Yosh rassomga bu yo'lda zafarlar ulaymiz.



Shunday qilib, XIX asrning oxirgi o'n yilligida Rentgen nurlari tabobat olamiga kirib keldi. Bugun bu nurlar inson manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Rentgen 1923-yil 10-fevralda vafot etgan.

SAODAT



Sabziga borish yo'lini toping

Umid KAMOLOV chizgan rasm

Gulnozaning uyida katta tanana. Uyi sinfdoshlar bilan gavjum, lekin negadir Dilnoza ko'rilmaydi. U bo'lib o'tgan shuncha gap-so'zdan keyin qanday qilib dugonasi tug'ilgan kuniga borish haqida boshi gotardi. Aslida bu ikki dugonalarining orasidan qil ham o'tmasdi. Maktabda a'lo baholar va namunali xulq bilan o'qiydigan ikki qizaloqqa nima ham bo'ldi-yu, ko'z tegdi. Ular 7-sinfga o'tganlarida, ularning sinfga Umida ismli bir qiz keldi. U tanliq va xudbin edi. Shuning uchun ilk kunlardanoq deyarli hamma bilan urishib chiqdi. Yomon xulq uchun ustozlaridan dakk ham eshitdi. Ustozlari Gulnoza bilan Dilnozdek a'lo bo'lishini, ularidan o'tmak olishini uqirdi. Buni ko'raolmagan Umida ikki dugonani orasini buzishga chog'landi va ularni kuzata boshladi. Rejasini amalga oshirish uchun ularning fanlari o'zlashtirishda yordam so'radi. Shunda Dilnoza: «Mayli, bugun uyimizga kel, yordamlashaman», dedi. Umida esa Gulnozaning uyiga bordi. Umidani kuzgan Dilnoza nega kelmaganini so'radi. Shunda Umida: «Dilnoza fanlarni yaxshi bilmaydi, deb

UMIDANING KATOSI

(Vogca)

ustozlik qila boshladi. Osiydan keyingi ustoz Ergash Majidov go'losida shug'ullanishni davom ettira boshlaganida esa Sirjiddinning ko'plab g'irralari ochila boshladi. Oz fursatda uchinchi, ikkinchi va birinchi razryad talablarini bajardi. Bu esa unga nomzodlik, sport ustasi darajasiga erishishi uchun yo'llanma vazifasini o'tadi. Bugungi kunda u FIDE ustasi, jahon chempioni, Osiyo chempionatining bronza medali sovrindori. Eslash hozir ham maroqli. Shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtasida birinchi jahon chempionati Germaniyaning Malente shahrida bo'lib o'tgan edi. 28 davlat vakillari ishtirok etgan bahslarda ikki o'smir shaxmatchimiz yurtimiz sharafini himoya qildi. Katta ustunlik bilan rossiyalik raqibidan ustun kelgan Sirjiddin ISSS yo'nalishida birinchi chempion degan unvonga sazovor bo'ldi. Mazkur yilda shaxmatchimiz iqtidori yana bir bor sinovdan o'tdi. Shveysariyada bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtasidagi ikkinchi jahon chempionatida o'z lojiiga munosib ekanligini yana bir bor isbotladi. Barcha raqiblarni dog'da qoldirib, O'zbekiston yoshlarining nimalarga qodirligini dunyoga ko'rsatdi. Sirjiddin Zayniddinov vaqti kelib, kattalar orasida ham mana shu yutuqlarini go'liga kiritishiga umid qilamiz.

SIRG'ALI BU!

Bu yerda gullaydi orzular qiyy'os,
Armon uyqusini quvadi shamol.
Humo qushi uchar, bu hurlikka xos
Samoning bag'rida xushhol, bemalol,
Ermak emas dolg'ali,
Sirg'ali bu, Sirg'ali!

Mo'jizalarga boy bir butun olam,
Azim poytaxtinga yarashgan sirg'a,
Tiniq osmonimda To'lin oy kabi
Yonbosh tushgan chiroy – oltin isirg'a,
Ermak emas dolg'ali,
Sirg'ali bu, Sirg'ali!



MAHFUZA

Makon bo'ldi bizga nurli bir chaman,
Mustaqil yurtimda marjon begumon,
Shodligimdan Vatan, seni quchaman,
E'tiqod ulg'ayar, mustahkam imon,
Ermak emas dolg'ali,
Sirg'ali bu, Sirg'ali!

SIRG'ALINI BILASIZMI?

Sirg'alining kelib chiqishi haqida bir necha taxminlar mavjud. Shulardan birini sizga ilindik.

Rivoyat: Hozirgi Sirg'ali tumani o'rni juda bahavo, sersuv joy ekan. Ezgusevar bir guruh kishilar shu joyni obod etibdilar. Sekin-asta go'zal go'sha paydo bo'lib, odamlar unga nom berish haqida bosh qotiribdilar. Ular orasidagi donolardan biri: «Toshkent – ona shahrimiz, go'shamiz unga oltin sirg'a bo'ldi, shuning uchun bu yerni «Sirg'ali» deya atasak xato bo'lmas».

Bu gap barchaga ma'qul bo'libdi. Aytishlaricha, o'sha zotning nomini ham Sirg'ali ota deb atay boshlagan ekanlar.

kasbingizda muvaffaqiyatlar ulaymiz!

— Gulshanam opa, shartli, ayni paytda o'ta mas'uliyatli o'layotganimdan o'n chandon quvonaman.

hikoyalari yozayotgan shogirdlarim qalbida adabiyotga mehr uyg'ota ko'klarga yetadi. Hikoyalaring chiqqaniga bir suyunsam, meniga havas qilib «G'uncha» da chiqibdi», deya gazeta va jurnallar ko'tarib kelishsa, boshim «Ustoz, hikoyangiz «Tong yulduzi» da, «Ma'rifat» da, «Gulxan» da yo qalam tutqazgan narsa ham ana shu mehr bo'lsa, ajabmasi! Shogirdlarim: — Bolalar bilan ishlaydigan insonlar qalbi mehrga to'la bo'ladi. Qo'limga — Sizni ijodkor o'qituvchi ham deysiz.

taalluqlidir.

o'quvchilarimga, farzandlarim Fotima, Zuhra va Oltinbeklarga ham — «Bolalar bilan tilla, iltimoz, iltimoz kamolini ko'rish». Bu shiorim nafaqat — Gulshanam opa, hayotdagi shioringiz qanday?

berib kelayman.

tumanidagi politehnika kasb-hunar kollejida o'quvchilarga bor bilimimni maktabda amaliyotda mustahkamladim. Hozirda Toshkent shahar, Sirg'ali keyinchalik Sirg'ali tumanidagi 322-



BOLALAR BILAN TILLASHIB

Gulshanam opa asli buxorolik. Lekin hozirda poytaxtimizning so'lim tumanlaridan biri — Sirg'ali'da istiqomat qiladilar. 1991-yildan buyon o'qituvchilik kasbini ardovlab kelayotgan opa ayni damda bor iqtidorini sirg'alik o'quvchilarga ta'lim-Mehridaryo ustozlarimiz bayrami arafasida Gulshanam opa bilan subhatalashdik:

— O'qituvchilik kasbga bolaligimdan o'qitilgan mehr men Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga yetakladi. Institutda o'lgan nazariy bilimlarimni dastlab Shofirkon tumanidagi maktabda, keyinchalik Sirg'ali tumanidagi 322-

qiziqishi otaga umid bag'ishladi va o'zi e'tirishini xohlardi. Sirjiddinning shaxmatga bilan jiddiy shug'ullanib, uning ishini davom etasi Savronbek aka farzandlaridan biri shaxmat Shaxmat bo'yicha murabbiy bo'lib ishlovchi bo'lardi.



shaxmat o'yinab, ularni dog'da goldirgan hollari ko'p musobaqalarda g'atnashib, malakasi oshgan kishilar bilan o'zlashirdi. O'zidan kata yoshdagi respublika va xalqaro shaxmatdagi bir nechta murakkab usullarni mukammal Bolakay bu ishga qat'iy kirishdi. Olti-yetti yoshlarida o'ylashgandi.

Yaqinda o'zining o'n sakkiz yoshini qarshilagan Sirjiddin serfarzand oilada voyaga yetdi. Ota-onasining aytishicha, Sirjiddin 3-4 yoshidan o'q shaxmatga qiziqib qolgan ekan. Avvaliga ular bu qiziqishini o'tkinchi bir havas deb

CHO'QILARNI SOG'INGAN BOLA

Tuman hokimiyati ham muntazam ravishda harakat faollari taqdirlab kelmoqda. Shu tariqa tuman yoshlari poytaxtimizni yana-da go'zallashishi uchun o'zlarining munosib hissalarini qo'shishga intilmoqda.

etadilar.

hududlardagi qariyalari, nogironlarga sovg'alar, o'z maktab kutubxonalarini uchun kitoblar taqdim bo'limlariga topshirishadi. Topilgan mablag'lariga chiqindilari, yetim idishlarni ajratib olib, qabul Chiqindilar uchun maxsus joylardan qog'oz bo'lib olib, uning tozaligini nazorat qiladilar.


yashaydigan mahalla, ko'p qavatlil uy-larni hududlariga tuyg'u paydo bo'ldi. «Yashil patrul» a'zolari o'zlarini g'ullab yashnashi uchun men ham mas'ulman, degan keidi. O'quvchilar qalbidan, shu yurt mening, uning patrul»chilar soni bugungi kunda 8 mingdan oshib 30-40 nafar ko'ngillilardan tashkil topgan «Yashil bilan chiqilgan edi. Dastlab har bir maktabda «Yashil patrul» guruhlarini tuzish tashabbusi



«BUNYODKOR YOSHLAR BOG'I»

Sirg'ali tumanida «Yoshlar yili» Davlat dasturi asosida, shuningdek, 2009-yilning may oyida nishonlanadigan poytaxtimizning 2200 yillik yubileyiga munosib tayyorgarlik ko'rish borasida ko'plab


ibratli ishlar amalga oshirildi. Yoshlar faolligini oshirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish maqsadida «Bunyodkor yoshlar» guruhlarini tuzildi. Asosan o'quv muassasalarida tuzilgan bu guruhlarining asosiy vazifasi atrof-muhitni muhofaza qilish, belgilangan hududlarda bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini targ'ib qilish, tengdoshlari orasida ekologik tarbiyani rivojlantirishga munosib hissa qo'shishdan iborat.



Shu harakatlar asosida 44 ta «Bunyodkor yoshlar» bog'ini barpo etish ham rejalashtirilgan edi. Mahalla fuqarolar yig'ini, uy-joy mulkdorlar shirkatlarining ko'magi bilan bu reja ham amalga oshirildi. Bugungi kunda kishi ko'zini quvontiradigan darajaga yetgan bu bog'larni barpo etishda qatnashgan guruhlar munosib taqdirlandilar.

«Yashil patrul» harakatda

Tuman hokimining qaroriga ko'ra, tuman maktablarida



BU NOMNI BUTUN DUNYO BILADI

Tasodif ekanmi, jismoniy tarbiya darsida mashqlarni bajara turib, qo'limni sindirib qo'ydim. Ota-onam meni Toshkent shahridagi 16-kasalxonaga olib borishdi. Shifokor holatimni ko'rib, shirin so'zlar bilan tezda sog'ayishimni aytib, darhol rentgen xonasiga boshlab bordi. U yerda ulkan apparatda qo'limning singan joyini ko'rishdi va zudlik bilan muolaja qilib, gipslab qo'yishdi. Takror rentgenda ko'rishganda, qo'lim joyiga tushgan edi. Bundan doktorning o'zi ham xursand bo'lib: «Omading bor ekan, qizim, ishimiz yengil ko'chdi», dedi. Oradan ko'p o'tmay biz yana shifokor huzuriga bordik, u yana rentgenda qo'limni tekshirib ko'rdi. Singan joyi tamom bitgan, qo'lim asl holatiga qaytgan edi.

Rentgen nurlari menga yordam berganidan xursand bo'lib, bu nurning qanday kashf etilgani bilan qiziqdim.

Dastlab anglagan narsam shu bo'ldiki, hayotning turgan-bitgani ilm ekan. Shu bois ham olimlar uni astoydil o'rganar va turli kashfiyotlar yaratishga muyassar bo'lar ekanlar. Qaysi o'lkada ko'p kashfiyotlar yaratilsa, o'sha yerda shunchalik ko'p rivojlanish bo'lishi tarixdan ma'lum.

Biz bugun rentgen nurlarini oddiy hodisa sifatida qabul qilamiz, ammo yangilik hech qachon o'z-o'zidan osongina yuzaga kelmagan, turgan gapki, rentgen nurlarining yaratilishi ham ancha qiyin kechgan. Olimning uzoq vaqt mobaynida ketma-ket izlanishlar olib borganini aniq va ravshan.

Vilgelm Konrad Rentgen! Bu nomni butun dunyo biladi va hurmat qiladi. U 1845-yilning 17-martida Olmoniyaning Lepen shahrida tug'ilgan. 24 yoshida doktorlik unvonini qo'lga kiritdi. O'zi kashf etgan nurlarning xususiyatlari fanga noma'lum bo'lgani uchun ularni dastlab «X» nurlar deb atagandi va bu haqda 1895-yil 28-dekabrda Vyurserburg fizika-tibbiyot jamiyati Kengashida ma'lum qildi. 1901-yilda Rentgen Nobel mukofotiga loyiq deb topildi.

ZERIKTIRIB QO'YMADIKMI?



Hamza tumanidagi 145-maktabning o'quvchilari Respublika bolalar kutubxonasiga tashrif buyurishdi. U yerda bolalar nashrlarining ijodkorlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Endigina 3-sinfga qadam qo'ygan o'quvchimiz Mehribon Saydullayevaning aytishicha, maktab


kutubxonasida sevimli gazetasi taxlami bor ekan. Lekin u o'zining shaxsiy taxlami bo'lishni xohlaydi. Buning uchun esa «Tong yulduzi» va sevimli «G'uncha» jurnaliga obuna bo'lishga so'z berdi. Gazetadagi qaysi sahifalarni sevib o'qiyasiz, degan savolimizga esa 3-«G» sinf o'quvchisi Fazliddin Nasriddinov shunday javob berdi:

– Men ko'proq «Bu ajib dunyo» sahifasini, quvnoq she'rlar va suratli hikoyalarni o'qiyman.

Bu bolalar orasida, hatto gazetamizda chop etilayotgan she'rlarni yod olib, tadbirlarda o'qib beradiganlari ham bor ekan. Biz ana shunday o'quvchilarning safi kengayishini istaymiz.

Shuningdek, bu yerda sevimli shoiramizning 50 yoshli yubileyiga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda shoiraning hamkasblari, do'stlari qatorida uning muxlislari, jajji shogirdlari, 17-, 64-maktab o'quvchilari ishtirok etishdi. Qiziqarli uchrashuvda bolalar shoiraning yangi she'rlaridan, qo'shiqlaridan tinglashdi hamda o'zlari ham yod olgan she'rlaridan o'qib berishdi. Ayniqsa, Kavsar opaning «Irkivoy va Kirketjon» she'riy to'plami asosida yaratilgan multfilmini bolajonlar maroq bilan tomosha qilishdi.



FERUZAXON,
SAYYORABONU



KIM QORA?

Barno va Lola opa-singil bo'lsalar-da, tashqi ko'rinishdan bir-birlariga sira o'xshashmasdi. Bir kuni bobosi nabiralarga muzqaymoq olib keldi.

– Rahmat, bobojon, muzqaymoqni yaxshi ko'rishimni bilasiz-a? Sizni yaxshi ko'raman, – dedi Lola quvonchi ichiga sig'may.

– Men ham seni yaxshi ko'raman, o'zimning «qora kishmishim», – deya jilmaygan ichkariga kirib ketdi bobo.

Bu gaplarni eshitgan Barnoning jahli chiqib, Lolaga:

– Hoy, sen muzqaymoqdan bitta emas, mingta yesang ham oqarmaysan. Mana meni qara, muzqaymoqdek oppoqman, – dedi.

Opasining bu so'zlaridan Lolaning sevinch to'la ko'zlariga yosh keldi va boshini yerga ekkancha yig'lab yubordi.

Shu payt bobosi nabiralarning yoniga kelib, nima bo'lganligini so'radi. Barno go'yo hech narsa bo'lmagandek hovlida turardi. Lola esa goh yig'lab, goh muzqaymog'idan yalab, bo'lgan voqeani bobosiga gapirib berdi.

– Nima, gapim yolg'onmi? O'zingiz ayting, bobojon, kim oq-u kim qoraligini, – deya gapga qo'shildi Barno.

Barnoning bu gaplaridan bobosi xafa bo'ldi.

Shu payt hovliga qo'shni qiz Farida kirib keldi va Barnodan muzqaymoq berishini so'radi.

– Meniki kam qoldi. Ana, Loladan so'ra, – dedi Barno muzqaymog'ini yashirib.

Lola yig'lab turgan bo'lsa-da, qo'lidagi muzqaymog'ining yarmini Faridaga bo'lib berdi.

Bo'lib o'tgan voqeaning guvohi bo'lgan bobosi:

– Qani, qizaloqlarim, endi sizlarga kim oq-u kim qoraligini aytishim shart emasdir-a? – dedi. – Insonning faqatgina yuzi emas, ko'ngli ham oq bo'lishi kerak.

Barnoning paxtadek oppoq yuzlari qizarib ketdi.

Amirbek ODAMBOYEV,
Xorazm viloyati, Hazorasp
tumanidagi 1-maktabning
7-«D» sinf o'quvchisi

SHUKUR QILING!

Balki sizning ham 80 yoshlik bobongiz bordir?! Ularning nasihatlarini tinglab ulg'ayotgandirsiz?! Shunday bo'lsa-da, sizlarga ulug' yoshga yetgan Saidikrom Saidmahmudov bobongizning o'z hayotlaridan so'zlab bergan ibratli pandlarini keltirmoqchimiz. Saidikrom boboning bolaliklari ayni urush yillariga to'g'ri kelgan ekan. Ularning aytishlaricha, shunday sharoitda bolalarning ilm olishlariga ham imkon bo'lmagan. Hech qanday texnika rivojisiz, hatto oddiy velosipedsiz yashashga to'g'ri kelgan. Hamma ish qo'lda qilinib, bolalar erta mehnatga berilganlar. Ko'cha sang'ib, to'p tepish qayoqda deysiz... O'taning bag'rida shirinlik yegancha erkalanib o'tirishni bolalar orzu qilishgan. Shuning uchun bugungi imkoniyatlarga to'la zamonamizning bolalari, yoshlari baxtli ekanligini keksalar doim ta'kidlashadi. Saidikrom bobomiz ham bu yilning yoshlarga atalgani va ularning nabira-yu evaralarining bolaliklari mo'jizadek o'tayotganidan quvonib, «Shukur qilinglar, bolalarim, bu kunlarga shukur qilinglar», degancha duo qiladilar.

QIZLARXON

QISHIN-YOZIN KONKIDA UCHAMIZ

Yo'g'-e, deysizmi? Ha, ishonavering, chindan ham Toshkentning 2200 yilligi to'yi arafasida poytaxtimizning Yunusobod tumanining 19-dahasida muzda uchish majmuasi barpo etildi.

Bu yerda bolajonlar sportning konkida figurali uchishi bo'yicha tajribali murabbiylardan saboq oladilar. Yangi koshonaga qadam qo'ysangiz, xuddi teatr binosiga kirgandek bo'lasiz.

Sahnani kuzatish uchun qo'yilgan o'rindiqalarda siz figurali uchishni bemaol miriqib tomosha qilishingiz mumkin.

150 tomoshabinga mo'ljallangan sport sog'lomlashtirish maskanida bugun qurilish ishlari nihoyasiga yetkazildi. 30X40 o'lchamdagi maxsus plastik muz qoplamasi Kanadadan keltirilgan.

Darvoqe, muz sport maskani yurtimiz terma jamoasi a'zolari uchun munosib sovg'a bo'ldi. Shu kungacha terma jamoa a'zolarimiz AQSHning Texas shtatida va Rossiyaning Yekaterinburg, Pervauralsk shahrida o'quv-mashg'ulotlarini o'tkazdilar. Sportning bu nafis turi bilan shug'ullanuvchilar dunyo andozasi darajasidagi qulayliklardan bahramand bo'lishga musharraf bo'ldilar. Endilikda sportning bu turiga qiziqqan o'g'il-qizlarimiz uch yoshlaridan boshlab mahoratli murabbiylardan ilk saboqni boshlaydilar.

Ur-re, shahrimizda muz sporti majmuasi qurilibdi, deb quvonyapsizmi? I-e, yozda erib ketsachi, degan xavotiringiz ham bormi? Aslo unday emas.

Sizning bu koshonangiz maxsus sun'iy qoplama bo'lib, u xuddi muz kabi sirpanchiqlik xususiyatiga ega.

Shuning uchun ham u qishin-yozin o'z xususiyatini yo'qotmaydi.

– Shahrimizning 2200 yilligi arafasida qurib foydalanishga topshirilgan bu maskan bizning ko'p yillik orzumiz edi, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, xalqaro toifadagi hakam Yevgeniy Roxin. – Yurtimiz iqtidorlarga boy. Ulardek talantlarga diyorimizda yaratilgan sharoitlar albatta bizdek murabbiylarni doimo astoydil ishlashga, bo'lajak chempionlarni qishki Olimpiadalarga tayyorlashga chorlaydi.

Murabbiy haq. Yangi maskan, yangi orzu, umidlarga to'la bo'ladi. Bolalikning qutlug' qadamlari ulug' kelsin.

Albatta, chempion bo'lish osonmas. Buning uchun dastlabki kundanoq tinimsiz mehnat va izlanish, tanlagan sport turingizda qat'iyatlik bilan yondoshish kerak. Sizlar bilan Yunusobodda yaxmalak uchguncha, bolalar!

Ma'mura MADRAHIMOVA



BUGUNNING

«YANGI
AVLOD»LARI

Aziz bolajonlar! Bugungi sahifamiz mehmoni Madina Bahriddinova. Madina 14 yoshda, u Samarqand viloyatining Katta-qo'rg'on shahrida tug'ilgan.

Madina bolaligidan san'atga alohida mehr qo'yib ulg'aydi. U o'zi tahsil olayotgan maktabning a'lochi, iste'dodli o'quvchilari qatoridan joy olgan. Sahifamiz qahramoni, ayniqsa, san'atning «opera» turiga qiziqadi.

«Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivalida ham aynan shu yo'nalishda qo'shiq ijro etib, muxlislar e'tiboriga tushdi, uni olqishlab kutib olishdi. Chunki u shu yo'nalishda qo'shiq ijro etgan yagona ishtirokchi edi-da.

Madina Dalv (qovg'a) burji ostida tug'ilgan. Fizika, tarix, huquq fanlarini yoqtiradi. Saodat Qobulova, Muyassar Razzoqova kabi ustoz san'atkorlarning san'atlarini kuzatib boradi. Sevimli bayrami – Navro'z.


Nazokatxon TOJIBOYEVA



DALADA

Bo'lib o'tdi dalada bo'ron va shamol,
Dehqonlar der: «Hosilni tezroq terib ol».
Bechora karamjon yura olmaydi,
Harakat qilsa ham tura olmaydi.
Qovoqto'ra hali ham uxlab yotibdi,
Hech narsani sezmasdan boshi qotibdi.
Kennoyimiz piyozxon loyga chaplanib,
Yerdan chiqib ketish uchun turar chiranib.
Sholg'om bilan sabzining panohi o'ra,
Qishda undan pishiramiz palovxonto'ra.

Muslima MIRZABOYEVA,
Toshkent shahar, Hamza tumani,
5-sinf o'quvchisi

ENG QIMMAT
KITOB

Dunyodagi eng qimmat kitob Leonardo da Vinchining kitobi hisoblanadi. Bu kitob oynali harflar yordamida qimmatbaho qog'ozga bitilgan «Lastor kodeksi» va «Yerdagi suv va osmon ishlari» deb nomlangan asarlar bo'lib, uni dunyoning eng boy odami va kompyuterlar «qiroli» Bill Geys 24 million dollarga sotib olgan.

Eng ko'p sotildi

Dunyoda eng ko'p sotilgan kitob «Ginnes dunyo rekordlari» to'plami ekan. 1955-yildan buyon nashr etilib kelinayotgan kitob 37 tilga tarjima qilingan va 100 milliondan ortiq nusxada sotilgan. Dunyoning turli burchaklarida odamlar bu kitob sahifalaridan joy olgani uchun nimalar qilishmaydi deysiz?!

BILASIZMI?

Yaqinda britaniyalik Rozi Sueyl-Poup degan ayol besh yil ichida yer sharini piyoda aylanib chiqdi. Piyoda sayohatchi 20 ming millard (32 ming kilometr) yo'l bosib o'tdi. Sayohatchi ayol Uelsdagi qadrdon shahri bo'lmish Tenbida yashaydi. U 61 yoshga to'ldi. Bu yoshda shuncha masofani piyoda kezib chiqish katta jasorat emasmi?!

MUSIQA
MASKANI

Poytaxtimizdagi Reyngold Glier nomidagi ixtisoslashgan akademik-litsey uzoq tarixga ega musiqa maskanlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning turli burchaklaridan kelgan iqtidorli bolalar bu yerda bilim oladilar.

O'zining 81-o'quv yilini boshlagan litsey o'z faoliyati davomida turli musiqa asboblari yuqori darajada chala oladigan ko'plab musiqachilarni voyaga yetkazdi. Ayni damda sobiq glierchilar xalqaro tanlov va festivallarda yuqori natijalarga erishib, mamlakat sharafini ko'klarga ko'tarmoqchilar.

Flora FAXRUTDIN

SIZDAN XAT
OLDIK

Bizga Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidan maktub yo'llashdi. Unda 9-sinf o'quvchisi kesak, tuproq hamda maktabdagi borlarni yer ekan. «Tong yulduzi» gazetasida chiqqan maqolalarni o'qib, bizdan maslahat so'rabdilar. Ularga quyidagicha maslahat beramiz:

Avvalo, bolalar va o'smirlar shifokoriga borib uchrashing, sizga tashxis qo'yiladi va davolaydilar. Unda sizni qoningiz tarkibidagi gemoglobin (kv), eritromitsin, rang ko'rsatkich, retikulositikor, trombositlar, oq qon donachalari va eritrositlari cho'kish tezligi aniqlanadi.

Undan keyin temir preparatlari bilan davolash uch bosqichda olib boriladi. Ovqatlanishda taomdan keyin darrov achchiq choy ichmang, ular sizni oshqozoningizdagi muvozanatni buzadi.

Albatta davolanish laboratoriya nazorati asosida, temir almashuvi ko'rsatkichlari o'zgarishiga qarab olib boriladi. Bizga to'la davolanib, natijalari to'g'risida yozib yuboring.

Tohir IBRAGIMOV,
tibbiyot fanlari doktori,
shifokor-dermatolog

LINVORD

Mehnat	Daraxt	Adabiyotdan yozma ish	Shirinlik turi	Jasur	Oynavand rasm	Epchil	Millat	Asbob	Tog' oromgohi
Kasb	Tansiq taom	Ijodkor	Dalil	Qadimgi til	Qamariy oy	Tovush	Maqom	Ot sporti, ko'pkari	Qattiq jism

Foziljon ORIPOV



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYDOROV
Navbachi:
Axtamqul KARIM

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 23284
Buyurtma N: J 6088

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.